



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Murojaatlarni o‘rganish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga kelib tushgan “Sog‘liqni saqlash yuridik xizmati” advokatlik byurosi tomonidan 2023-yil 14-avgustdagi 8678-p-, 16-avgustdagi 8754-p-, 8755-p-, 23-avgustdagi 8991-p- va 8992-p-sonli Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 12-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti, 2- va 4-sonli umumta’lim maktablari yuzasidan advokatlik so‘rovidagi holatlarni O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan joyida o‘rganish maqsadida **buyuraman:**

1. Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 12-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti, 2- va 4-sonli umumta’lim maktablarida advokatlik so‘rovida ko‘rsatilgan holatlar yuzasidan 2023-yil 29-avgustdan 31-avgustgacha o‘rganish amalga oshirilsin.

2. Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 12-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti, 2- va 4-sonli umumta’lim maktablarida murojaatda ko‘rsatilgan holatlarni o‘rganish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda - ishchi guruh) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruhga:

o‘rganish qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshirilsin natijalari belgilangan tartibda rasmiylashtirilsin;

murojaatlarni o‘rganish davomida zaruratga ko‘ra qo‘shimcha mutaxassislar jalb qilishga ruxsat berilsin;

o‘rganish natijalari yuzasidan ma’lumotlar Ichki audit va moliyaviy nazorat departamentiga kiritilsin.

4. Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti (M.Faxrutdinov) uch ish kunida o‘rganish yakunlari bo‘yicha rasmiylashtirilgan ma’lumotlar asosida vazirga axborot taqdim etsin.

5. Toshkent viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (I.Akbarov):
ishchi guruh faoliyatini amalga oshirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratsin va tegishli hujjatlarni taqdim etishi haqida mas'ul xodimlarga tegishli ko'rsatma bersin;

moliya-xo'jalik faoliyatida foydalanilayotgan barcha dasturlarda, xususan, moliya-buxgalteriya xizmatlarining "UzASBO" dasturida ishchi guruhi a'zolarining o'rganishi uchun imkoniyat yaratsin va mas'ul xodimlar hamda moddiy javobgar shaxslarni o'rganish jarayoniga ishtirokini ta'minlasin.

6. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan mas'ullarni belgilangan muddatlarda xizmat safariga borishi yuzasidan hujjatlar rasmiylashtirsin.

7. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (F.Jamuratova) xizmat safari bilan bog'liq sarf-xarajatlarni ilovada ko'rsatilgan vazirlik xodimlariga belgilangan tartibda to'lanishini amalga oshirsin.

8. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni o'rnatilgan tartibda tegishli boshqarma va bo'limlarga yetkazilishini ta'minlasin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir

Toshkent sh.,
2023-yil "28"- avgust,
260-son



X. Umarova

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2023-yil "28" avgustdagi
260 -sonli buyrug'iga
ILOVA

**Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga
qarashli 12-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti, 2-sonli va 4-sonli umumta'lim
maktablarida murojaatda ko'rsatilgan holatlarni o'rganish bo'yicha**

ISHCHI GURUH TARKIBI

T/r	F.I.SH.	Lavozimi
1.	O. Soliyev	- Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti Ichki audit va vazirlik tarkibiy bo'linmalari faoliyatini tekshirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, <i>guruh rahbari</i>
2.	T. Jumanov	- Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti Nazorat tadbirlarini amalga oshirish va Davlat nazorat organlari bilan o'zaro hamkorlik bo'limi yetakchi mutaxassisi, <i>a'zo</i>
3.	Sh. Baxromov	- Korrupsiya qarshi kurashish komplayens nazoratini amalga oshirish bo'yicha bosh mutaxassis, <i>a'zo</i>
4.	U. Akmirzayev	- Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bosh yuriskonsulti, <i>a'zo</i>
5.	N. Urozova	- Toshkent viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i, <i>a'zo</i>